

TA'LIM TIZIMIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH

Ergashev Shukurullo Luqmonjon o'g'li

*Farg'ona davlat universiteti magistratura bo'limi ekologiya mutaxassisligi
1-bosqich magistranti*

Annotatsiya: Maqolada ta'lim tizimida ekologik madaniyatni shakllantirish masalalari yoritilgan. Ekologik madaniyatning mazmuni, uning ta'lim jarayonidagi o'rni va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Ekologik ta'limni rivojlantirish yo'llari, ota onalar, jamiyat va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik muhimligi muhokama qilinadi. Shuningdek, ekologik mas'uliyatni oshirish va barqaror rivojlanishga erishish uchun qonunchilik, texnologik innovatsiyalar va ekologik ta'lim dasturlarini takomillashtirish choralari tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: ekologik madaniyat, ekologik ta'lim, ekologik ong, ekologik mas'uliyat, tabiatni muhofaza qilish,

Annotation: The article discusses the issues of developing environmental culture within the education system. It analyzes the concept of environmental culture, its role in the educational process, and its significance for societal development. The paper examines ways to enhance environmental education and highlights the importance of cooperation among parents, society, and educational institutions. In addition, recommendations are provided for improving legislation, technological innovations, and environmental education programs in order to increase environmental responsibility and achieve sustainable development.

Keywords: environmental culture, environmental education, environmental awareness, environmental responsibility, nature protection.

Аннотация: В статье освещаются вопросы формирования экологической культуры в системе образования. Анализируется содержание экологической культуры, её роль в образовательном процессе и значение для развития общества. Обсуждаются пути совершенствования экологического образования, а также важность сотрудничества родителей, общества и образовательных учреждений. Кроме того, предлагаются меры по совершенствованию законодательства, технологических инноваций и программ экологического образования для повышения экологической ответственности и достижения устойчивого развития.

Ключевые слова: экологическая культура, экологическое образование, экологическое сознание, экологическая ответственность, охрана природы.

Insoniyat hozirgi kunda global ekologik muammolarga duch kelmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish uchun texnologik yechimlar bilan bir qatorda, insonlarning ekologik ongi va madaniyatini oshirish zarur [1]. Global iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi, atmosferaning ifloslanishi va boshqa ekologik muammolar



insoniyat oldidagi eng katta muammolardan biriga aylandi. Shuning uchun ham ta'lim tizimida ekologik madaniyatni shakllantirish va uni takomillashtirish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ekologik madaniyat kishilarni tabiatga ongli va mas'uliyatli munosabatda bo'lishga undaydi.

O'zbekiston Respublikasining ekologik-ta'limni rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni so'zsiz amalga oshirish, Respublikamiz hududidagi ekologik masalalarni jamlagan holda ta'lim tizimi tomonidan ushbu masala yechimiga hissa qo'shish, o'sib kelayotgan yosh avlodning ekologik savodxonligini oshirish, ularning ekologik ongi va ekologik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, ekologik ta'lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil qilish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori ishlab chiqildi. "O'zbekiston Respublikasining Ekologik ta'limni rivojlantirish kontseptsiyasi" ning amalga oshirilishi vatanimiz tabiati, ekotizimlari, atrof-muhitni izdan chiqishidan asrashga hamda aholining barcha qatlamlarini ekologik madaniyatini oshirishga salmoqli hissa qo'shadi. Olgan ta'lim-tarbiyasiga qarab kishiga baho berilishi bejiz emas. Shuning uchun ham Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoev ta'lim tarbiya sohasiga katta e'tibor berib kelmoqdalar. Ekologik tarbiyani qaror toptirishda o'quv jarayonlarida tizimli usuldan keng foydalanilmoqda. Bu esa ekologik muammo yechimi yo'lida, qolaversa ekologik jamiyat barpo etishda muhim omildir. 2025-yilning 15-mayda PQ-184-sonli Prezident qarori tasdiqlandi. Bunda "2030-yilgacha aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasi" doirasida oliy ta'lim tizimida ekologik madaniyatni rivojlantirish bo'yicha kompleks va strategik yondashuvlar belgilandi. Mazkur chora-tadbirlar nafaqat talaba yoshlar orasida ekologik tafakkurni shakllantirish, balki ilmiy izlanishlar, xalqaro hamkorlik va raqamli vositalar orqali ekologik madaniyatni barqaror ta'limiy jarayonlarga aylantirishni maqsad qilganligi aytib o'tildi. Ekologik madaniyatni keng va tor ma'nolarda tushunish mumkin. Keng ma'noda ekologik madaniyat atrof-muhitni muhofaza qilish, uning oldida burch va mas'uliyatni anglagan holda, tabiatga ongli munosabatda bo'lish, ona tabiatni asrash yo'lidagi faoliyatdir. Tor ma'noda esa har bir shaxsning tabiatni muhofaza qilish madaniyati, deyish mumkin. Ekologik madaniyat tarbiya, ma'rifat va axloqni o'zida jamlaydi. Ekologik madaniyat muxtasar qilib aytganda, tabiatning rivojlanish qonuniyatlarini chuqur anglagan holda unga zarar yetkazmay asrab-avaylashdir. Uning taraqqiyoti ekologik ta'lim-tarbiya hamda ekologik ma'lumotlarni aholiga yetkazish, targ'ibot tashviqot qilish bilan chambarchas bog'liq. Binobarin ekologik madaniyat zahirida ekologik ta'lim-tarbiya yotadi. U esa tabiatning muhofaza qilishning ilmiy asoslari uchun zarur bilimlarni chuqur o'zlashtirish jarayoni va natijasi hisoblanadi. [2]

Talabalar, o'quvchilarda ekologik ong va madaniyatini shakllantirish uchun ularga ekologik tarbiya berishning asosiy formasi – bu darsdir, chunki darsda barcha o'quvchilar qatnashadi hamda reja materialini o'rganish orqali tizimi bilan berish mumkindir. Ekologik madaniyatni shakllantirishga mutassaddi muassasalar kishilarning tabiatni muhofaza qilish





imkoniyatlarini namoyon etishlari uchun, zarur shart-sharoitlarni yaratish borasida, davlat yoki nodavlat tashkilotlari, jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikdagi faoliyati bu boradagi ishlarning samarasini oshiradi. Ekologik madaniyat insoniyatning tarixiy rivojlanish jarayonida tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan nazariy-ilmiy g'oyalarning majmuasi bo'lmagan, ma'lum jamiyatda yashayotgan shaxslarning ruhiy xolatlari, hissiyotlari, kayfiyatlari va intilishlarini ham qamrab olib, turli darajadagi ijtimoiy ong shakllarining ekologiya maqsad-manfaatlari doirasida mushtarakligini ifodalaydi.

Ekologik bilim va ekologik madaniyatning tayanch fazilatlar:

1) axloqiy-ekologik onglik shaxsning muhim madaniyatlik sifati bo'lib, uning atrof – muhitni hissiy bilish jarayoni atrof – muhitdagi obyektlar va hodisalarni sezishi, idrok etishi, tasavvur qilishi, ziyraklik va teranlik asosida tabiat muhofazasi bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi lozimligini nazarda tutadi;

2) ekologik mas'uliyatlik shaxsda munosabat va mas'ullikni tarbiyalashda namoyon bo'ladi, bunday munosabat shaxsning bilib-bilmay, uzoqni o'ylamay tabiatga ko'rsatgan salbiy ta'siri oqibatlarini anglash va bunday ta'sirni bartaraf etish istagi natijasidagina shakllanadi;

3) ekologik irodaviylik shaxsning o'zi va o'zgalarning atrof – muhitdagi hatti-harakatlarini baholashi va nazorat qilishi shaxsdagi qat'iyatlik, tejamkorlik, ozodalik va pokizalik bilan bog'liq. Shaxsning ekologik madaniyatini shakllantirishda ekologik qadriyatlar alohida ahamiyatga ega, ularga tabiatni asrab-avaylashga intilish, tashabbuskorlik, izchillik, mehnatsevarlik va ongli faollik kabilar kiradi. Masalan, ekologik qadriyatning bir turi, ya'ni global, mintaqaviy va lokal ekologik muammolarni bilish yer, suv, energetik muammolar, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, bioxilma-xillikni saqlash, cho'llanish jarayoni, atmosfera havosining ifloslanishi kabi tushunchalar bilan chambarchas bo'g'liq.[3]

Ekologik madaniyat faqat ta'lim va targ'ibot bilan cheklanmaydi. Davlat siyosati va qonunchiligini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Chiqindilar va ifloslanishni boshqarish, tabiatni muhofaza qilish bo'yicha normalarni kuchaytirish, ekologik normalarni buzganlik uchun javobgarlikni oshirish lozim. Shuningdek davlat organlari, biznes va fuqarolik jamiyati hamkorligini yo'lga qo'yish zarur. Ekologik madaniyatni shakllantirish murakkab va ko'p qirrali jarayon. U ta'lim, ommaviy axborot vositalari, qonunchilik va boshqa omillarning o'zaro ta'sirini talab qiladi. Din va madaniyat ham ekologik ong va xulq-atvorga ta'sir ko'rsatadi. Islom dini tabiatni asrash, isrof qilmaslikka da'vat etadi. Shu bois, diniy tashkilotlar va ulamolar ekologik targ'ibotda faol ishtirok etishi, odamlarga tabiatga mas'uliyatli munosabatda bo'lish zarurligini tushuntirishi foydali bo'lardi. Ekologik madaniyat tushunchasi atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni, tabiat bilan uyg'un yashash tamoyillarini anglatadi [4].

Xulosalar:

Jamiyatda ekologik madaniyatni shakllantirish ekologik muammolarni samarali hal etish va atrof-muhitni asrashda muhim ahamiyatga ega. Ta'lim, jamoat ishtiroki, ommaviy





axborot vositalari, texnologiyalarni joriy etish va ijtimoiy mas'uliyatni oshirish orqali bu maqsadga erishish mumkin. Ekologik madaniyatni shakllantirish nafaqat atrof-muhitni saqlash, balki jamiyatning sog'lom, barqaror va iqtisodiy rivojlangan bo'lishiga xizmat qiladi. Jamiyatda ekologik madaniyatni shakllantirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. U atrof-muhit muhofazasi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanishga erishish uchun zarur. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, aholining ekologik madaniyati va ongi hali yetarli darajada emas. Shu bois, ekologik ta'lim va tarbiyani ta'lim tizimining barcha bosqichlarida kuchaytirish, o'quvdasturlari va o'qitish metodikasini takomillashtirish lozim. Ommaviy axborot vositalari ekologik mavzularni keng yoritishi, insonlarni tabiatni asrashga da'vat qilishi zarur. Buning uchun maxsus ekologik dasturlar, roliklar va loyihalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Davlat ekologik qonunchilikni takomillashtirishi, ekologik normalarni buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirishi, ekologik tadbirlarni moliyalashtirishi va rag'batlantirishi lozim. Shuningdek, ekologik siyosatni ishlab chiqishda jamoatchilik ishtirokini ta'minlash muhim. Barqaror rivojlanishga erishish, sog'lom atrof-muhitni saqlash va kelgusi avlodlarga yetkazish uchun butun jamiyatning say-harakatlarini birlashtirish zarur. Bu jarayonda davlat organlari, ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, biznes va nodavlat tashkilotlar hamkorlik qilishi lozim. Ekologik madaniyatni shakllantirish uzoq muddatli vazifa bo'lib, doimiy e'tibor va say harakatlarni talab qiladi. Faqat shu yo'l bilan tabiat va inson o'rtasidagi muvozanatni saqlab qolish, insoniyat farovonligini ta'minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hayitova, Y. (2021). Some Strokes To The Poem Of The Shodmonkul Salom. Theoretical & Applied Science Учредители: Теоретическая и Прикладная Наука, (10), 1033-1036.
2. Ergashev shukurullo "ta'lim tarbiya jarayonida o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish" bitiruv malakaviy ishi
3. Ta'limda ekologik madaniyatni shakllantirish va takomillashtirish To'raqulova Visola,
4. Raushana, K. (2023). Transformation Processes Of Women'S Mentality In Uzbekistan. Epra International Journal Of Socio-Economic And Environmental Outlook (Seeo), 10(4), 43-45.
5. Yuksak ekologik madaniyat -barqaror rivojlanish garovi Ergashev Shukurullo
6. Ekologik ta'lim va ekologik tarbiyaning ta'lim muassasalarida dolzarbligi Ergashev Shukurullo